



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

List of references:

1. United Nations World Tourism Organization reports on digital transformation.
2. National tourism development strategies of Uzbekistan (2019–2025).
3. Research articles on smart tourism destinations and ICT in tourism.
4. National statistics data on tourism performance.

UDK:338.48

**TURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH JARAYONLARINI
BOSHQARISHNING OMILLI TAHLILI**

**ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЦЕССАМИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ
ИНВЕСТИЦИЙ В СФЕРУ ТУРИЗМА**

**FACTOR ANALYSIS OF THE MANAGEMENT OF PROCESSES FOR ATTRACTING
INVESTMENTS INTO THE TOURISM SECTOR.**

Mirzayev Abdullajon Topilovich

Farg‘ona davlat universiteti “Iqtisodiyot va turizm” kafedrası professorı,
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Muxtorov Akmaljon Akbarjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti,
Turizm va mehmondo‘stlik mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Maqolada turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omili tahlili nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida turizm sohasida investitsiya jarayonlarini boshqarish darajalari bo‘yicha omillar tasniflangan hamda respublikamizning uchta shahar hududi (Farg‘ona, Namangan va Toshkent shaharlari) da tanlov asosida turizm sohasida faoliyat yurituvchi 120 nafar investitsiya faoliyatining ishtirokchilari (75 nafar yuridik shaxslar, 45 nafar jismoniy shaxslar) orasida so‘rovnomma o‘tkazilgan va uning natijalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, investitsiya, investitsion faoliyat, boshqaruv, turistik resurslar, turizm resurs salohiyati, turizm bozori, turistik faoliyat, turizm sohasidagi investitsiya faoliyati.

В статье теоретически и практически исследован факторный анализ управления процессами привлечения инвестиций в сферу туризма. В ходе исследования классифицированы факторы по уровням управления инвестиционными процессами в сфере туризма, а также на основе выборки в трёх городах республики — Фергана, Наманган и Ташкент — проведён опрос среди 120 участников инвестиционной деятельности в сфере туризма (75 юридических лиц и 45 физических лиц), результаты которого были проанализированы.

Ключевые слова: туризм, инвестиции, инвестиционная деятельность, управление, туристические ресурсы, ресурсный потенциал туризма, туристический рынок, туристическая деятельность, инвестиционная деятельность в сфере туризма.

The article theoretically and practically examines the factor analysis of managing the processes of attracting investments into the tourism sector. In the course of the research, factors were classified according to the levels of management of investment processes in the tourism sector, and a survey was conducted among 120 participants in investment activities in the tourism sector (75 legal entities

and 45 individuals) selected from three cities of the republic – Fergana, Namangan, and Tashkent – and the results were analyzed.

Keywords: tourism, investment, investment activity, management, tourism resources, tourism resource potential, tourism market, tourism activity, investment activity in the tourism sector.

O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘shida investitsion jarayonlar rag‘batlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatgani holda iqtisodiyotning texnik-texnologik holatini raqobatbardosh darajada barqaror saqlab turish, hukumatimiz tomonidan o‘tkaziladigan investitsion siyosatni sifat jihatidan rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish, investitsion va tadbirkorlik iqlimini, xususan, milliy iqtisodiyotning strategik sektori bo‘lgan turizm sohasida tubdan yaxshilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan tezkor o‘zgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlar har bir davlatdan faol iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan samarali islohotlarni amalga oshirish va uni takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunday yuqori darajadagi e‘tibor va mas‘uliyatni talab etgan holda olib boriladigan ichki hamda tashqi siyosatda milliy iqtisodiyotning ustuvor strategik manfaatlarini joriy davr va uzoq istiqbolda ham ro‘yobga chiqarish shuningdek himoyalashga erishish keng ko‘lamli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish bilan ta‘minlanadi, biroq, bu tadbirlarni iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ichki hamda tashqi sarmoyalarni faol jalb etmasdan turib amalga oshirib bo‘lmazligini nazarda tutsak, jahonda investitsiyalar iqtisodiyotning bugungi barqarorligi va jadal o‘shini ta‘minlovchi bosh omil sifatida e‘tirof etilayotganligi bejizga emasligini anglash mumkin.

Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish innovatsion rivojlanishining turli jihatlari ularga ta‘sir etuvchi omillarni, shuningdek, ularning innovatsion faoliyat samaradorligiga ta‘siri darajasini o‘rganish zarurligini anglatadi. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarining samaradorligi ushbu muammoning muvaffaqiyatli hal qilinishiga bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, aniq ilmiy asoslangan omillar tizimining yo‘qligi samaradorlikni kamaytiradi va sifatli innovatsiyalarning yaratilishi, natijadorligi hamda muassasaga muvaffaqiyatli joriy etilishini cheklaydi.

Birinchi o‘rinda, turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning innovatsion rivojlanishi omillari sharti yoki sababi turistik korxonalar faoliyati bilan bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmagan, innovatsion rivojlanishga ta‘sir qiladigan va uning innovatsion strategiyasini yaratish hamda amalga oshirishda hisobga olinadigan shartlar yoki sabablardir.

Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning innovatsion rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar tasnifi ularni muntazam tizimli o‘rganish nuqtai nazaridan alohida e‘tiborga loyiqdir. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida turistik korxonalarning innovatsion rivojlanishida tashqi va ichki omillarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Turizm sohasiga kiritiladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyatning mohiyati to‘g‘risida yaxlit ilmiy tasavvurni shakllantirish maqsadida ularning talqinlari mazmunini taqqoslash maqsadga muvofiq. Investitsion faoliyat aslida investitsiyalarni amalga oshirish jarayoni bo‘lgani sababli, ushbu tushunchalarning iqtisodiy mazmuni o‘zaro chambarchas bog‘liq va bir-birining mantiqiy davomi bo‘lishi lozim.

Mualliflar B.S.Mamatov, D.Y.Xujamkulov, O.SH.Nurbekovlar esa turizm sohasida investitsiya faoliyati mazmunini xos uslubda tadqiq etishga muvaffaq bo‘lgan. Ular tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra, “Keng ma‘noda, turizm sohasidagi investitsiya faoliyati – bu g‘oyalarni ishlab chiqish va investitsiya loyihalarini asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta‘minlash, buning natijasida barpo etilayotgan obyekt faoliyatini boshqarish va investorlarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ham aks ettiradi” — deb ta‘riflashadi [1].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan D.G‘.G‘ozibekov “investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag‘lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash shuningdek ko‘zlangan samarani olishdan iborat bo‘ladi”- kabi ta‘rif bergan.

Shuningdek, F.O‘.Dodiyeu investitsiya faoliyatida tijorat banklarining o‘rni haqida tadqiqotlar

amalgga oshirib uning fikricha “banklarning investitsiya faoliyati – bu bank investor sifatida daromad olish maqsadida moliyaviy aktivlarni sotib olishi, real aktivlarni yaratishi va tashkil qilishi uchun mablag‘larni joylashtirishi bilan bog‘liq faoliyatidir” — deb ta’kidlab o‘tgan [2].

N.R.Qo‘ziyevaning fikricha “Investitsiyalar bu – davlat yuridik va jismoniy shaxslarning daromad olish va boshqa ijobiy samaradorlikka erishish maqsadida mamlakat ichkarisida va tashqarisida yangi korxonalar tashkil etish, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni kengaytirish, qayta ta’mirlash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ko‘chmas mulk, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar hamda aktivlarni sotib olishga yo‘naltirilayotgan moliyaviy mablag‘lari, mulkiy va intellektual boyliklaridir” deb ta’rif bergan [3].

Fikrimizcha, turizm sohasidagi investitsiya faoliyatiga berilgan tariflar, uning mohiyatini to‘la ochib berolmaydi. Chunki, turizm sohasi investitsiya faoliyatida investitsiyalarning ketma-ketligi va ularning o‘zgaruvchanligi, ya’ni resurslar (qiymatliklar) qo‘yish (xarajatlar) va investitsiya natijasida samara (foyda, daromad) olish yotishi kerak. Agar samara olinmasa investitsiyalashga rag‘bat ham bo‘lmaydi. Turizm sohasidagi investitsiya faoliyati investitsiyalashning eng asosiy markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi, chunki aynan ana shu jarayonda investitsiya bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tadi, ya’ni jamg‘armalar (resurslar), qo‘shilmalar (xarajatlar), kapital mulk (tayyor mahsulot), iqtisodiy yoki ijtimoiy samara (daromad, foyda) shaklini oladi.

Mamlakat siyosiy jarayonlarining muvozanati, investitsiya muhitini shakllantirish, investitsiyalarni huquqiy ta’minlash, iqtisodiyotning noaniqligini hisobga olish va uni barqarorlashtirish, investitsiya bozorlari, infratuzilmasini rivojlantirish kabi asosiy tarkibiy qismlarni shakllantirish asosida investitsiyalarni boshqarishning ushbu omillari tizimini amalga oshirish investitsiya jarayonlarini barqaror rivojlantirishning fundamental asosini ta’minlaydi.

Turistik korxonalarda mablag‘larni joylashtirish bo‘yicha qaror qabul qilishda, investor nafaqat investitsiya salohiyatining hajmi va rivojlanish darajasini belgilovchi ko‘plab omillarni, balki milliy, hududiy, tarmoq darajalarida va bevosita korxonada investitsiyalash jarayonlarining rivojlanishini inobatga olgan holda kelajakdagi sarmoyalarning samaradorligini ham baholashi zarur. Turli sohalarda ushbu omillarning har xil qiymatlarini uyg‘unlashtirish variantlari ko‘lamini, ularning umumiy ta’siri va o‘zaro ta’sir natijalarini baholash zarurligini hisobga olgan holda, turizm sohasiga investitsiya kiritishning asosiy omillari aniqlandi (1-rasm).


Turizm sohasining hozirgi sharoitida ushbu omillarni baholash va tipologiyasini tahlil qilishning to‘liq mohiyatini ochib berish uchun ularning eng muhim xususiyatlariga e’tibor qaratish lozim.

Ajratib ko‘rsatilgan alohida muhim omillarning mazmuniy jihatini ko‘rib chiqish, turizm sohasini investitsion ta’minlashni yanada chuqurroq va maqsadli o‘rganish hamda uning investitsion rivojlanishining konseptual yo‘nalishlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Shunday qilib, turizm sohasini investitsiyalash tizimini shakllantirishda o‘ziga xos poydevor sifatida asosiy makroiqtisodiy omillar xizmat qiladi. Investitsiya savdosini rivojlantirish va makrodarajada investitsiyalarni jalb etishni ta’minlovchi asosiy omillar qatoriga mamlakatning ko‘lami (aholisi, resurslari) va uning bozor hajmi, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, investorlar uchun umumiy qulay muhitni yaratish, davlat siyosati va investitsiyalash strategiyasini belgilash, investitsiya infratuzilmasini shakllantirish hamda qonunchilik bazasini takomillashtirish yo‘nalishlarini kiritish mumkin.

Investitsiyalarni baholashni tahlil qilishga oid turli xil uslubiy yondashuvlarning barcha jihatlarini o‘rganish natijasida, turizm sohasini investitsion ta’minlashni baholashning eng muhim afzalliklari va kamchiliklari orasida asosiy mezon hamda investitsiyalarni baholashning alohida ko‘rsatkichlari uchun mahalliy usullarni ajratib ko‘rsatish zarur, degan xulosaga keldik.

Turizm sohasiga jalb qilinayotgan investitsiya faoliyatini xolisona baholash uning natijalarini baholash mezonini talab etadi. Bunda mezon yagona bo‘lishi, uni belgilovchi ko‘rsatkichlar esa ko‘p bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar natijasida investitsion salohiyatni oshirish va takomillashtirish asosida turizm sohasini boshqarishning barqarorligi va samaradorligini ta’minlash ana shunday mezon bo‘la oladi degan xulosaga kelish mumkin.



1-rasm. Turizm sohasida investitsiya jarayonlarini boshqarish darajalari bo‘yicha omillarni tasniflash [1]

Yuqorida keltirilgan tasniflardan kelib chiqqan holda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishga ta‘sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va tavsiflash ularning uzoq va qisqa muddatli istiqbolda sohaning rivojlanishiga ta‘sirini baholashga imkon beradi, shuningdek, sohani turli darajalarda rivojlantirish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, rivojlanishni strategik va taktik rejalashtirish sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Iqtisodiy-matematik nuqtai nazardan omili tahlillarining maqsadi – omillarga mos ustunlar soni parametrlarga mos satrlar sonidan ancha kam bo‘lgan omillar vaznlari matritsasini topishdan iborat bo‘lib, u tanlangan to‘plam uchun parametrlar orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlarini zarur aniqlik bilan tiklash imkonini berishi kerak [4].

Bu usuldan foydalangan holda omili bog‘lanishlarni modellashtirish asosida eng zarur omil bog‘lanishlari aniqlanadi va ushbu bog‘lanish zichligiga tayangan holda zaruriy tadbirlarni belgilash mumkin bo‘ladi.

Hududning turizm sohasiga investitsiyalarni boshqarish samaradorligi bo‘yicha umumlashgan ko‘rsatkichini alohida olingan ko‘rsatkichlardan foydalangan holda quyidagi (1) formula yordamida aniqlanadi.

$$F_0 = \sum_{i=1}^n G_i \cdot F_i$$

Bu yerda:

F_0 – yo‘nalishlar bo‘yicha turizm sohasiga investitsiyalarni boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichining 10 balli shkaladagi qiymati;

G_i — ko‘rsatkichning vazn koeffitsiyenti qiymati.

Tadqiqot jarayonida respublikamizning uchta shahar hududi (Farg‘ona, Namangan va Toshkent shaharlari) da tanlov asosida turizm sohasida faoliyat yurituvchi 120 nafar investitsiya faoliyatining ishtirokchilari (75 nafar yuridik shaxslar, 45 nafar jismoniy shaxslar) orasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma o‘tkazishdan asosiy maqsad – yuqorida biz tomonimizdan taklif etilayotgan hududning turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi bo‘yicha umumlashgan ko‘rsatkichini aniqlash formulasidagi vazn koeffitsiyenti qiymatini aniqlashdan iborat [5, 6].

O‘tkazilgan so‘rovnomada respondentlarga har 6 ko‘rsatkichning hududda turizm sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni ta‘minlash ahamiyati va turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning samaradorlik darajasidan kelib chiqqan holda ko‘rsatkichning ahamiyatini 100 balli shkaladan kelib chiqib 5 ta oraliqda baholab berish so‘raldi.

O‘tkazilgan so‘rovnomada hududlardagi turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko‘rsatkichlar variatsiyasi turlicha bo‘lgan va ushbu ko‘rsatkichlarni umumlashtirish asosida yuqorida ko‘rib o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlarining vazn qiymati aniqlashtirildi (1-jadval).

1-jadval

Farg‘ona, Namangan va Toshkent shaharlarida investitsiya faoliyati ishtirokchilari orasida yo‘nalishlar bo‘yicha turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi vazn koeffitsiyenti ahamiyati bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari [2]

№	Ko‘rsatkichlarning ahamiyati chegarasi (100 balli shkala asosida)	Respondentlar soni		
		Jami (120 nafar)	Shundan	
			Yuridik shaxslar (45 nafar)	jismoniy shaxslar (75 nafar)
1.	Turizm xizmatlari sifati ko‘rsatkichlarining ahamiyatini qanday baholaysiz?			
	80-100 ball	20	6	14
	60-80 ball	30	9	21
	40-60 ball	57	24	33
	20-40 ball	10	4	6
	0-20 ball	3	2	1
Ko‘rsatkich bo‘yicha umumiy vazn		0,39	0,37	0,41
2.	Sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi ko‘rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
	80-100 ball	11	2	9
	60-80 ball	18	4	14
	40-60 ball	34	13	21
	20-40 ball	48	19	29
	0-20 ball	9	7	2

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 3-son 2026 yil

Ko‘rsatkich bo‘yicha umumiy vazn		0,27	0,25	0,29
3.	Mahalliy investorlarning sohaga kiritayotgan investitsiya hajmi ko‘rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
	80-100 ball	4	1	3
	60-80 ball	11	2	9
	40-60 ball	27	11	16
	20-40 ball	46	18	28
0-20 ball	32	13	19	
Ko‘rsatkich bo‘yicha umumiy vazn		0,18	0,19	0,17
4.	Xorijiy investorlarning kiritayotgan investitsiya hajmi ko‘rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
	80-100 ball	3	1	2
	60-80 ball	8	1	7
	40-60 ball	22	9	13
	20-40 ball	49	20	29
0-20 ball	38	14	24	
Ko‘rsatkich bo‘yicha umumiy vazn		0,11	0,09	0,13
5.	Investitsiyalarni kiritish jarayonidagi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
	80-100 ball	0	0	0
	60-80 ball	5	1	4
	40-60 ball	15	4	11
	20-40 ball	30	12	18
0-20 ball	70	28	42	
Ko‘rsatkich bo‘yicha umumiy vazn		0,01	0,01	0,01
6.	Sohaga kiritilayotgan investitsiyalarning foydalilik ko‘rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
	80-100 ball	1	0	1
	60-80 ball	9	2	7
	40-60 ball	19	7	12
	20-40 ball	32	13	19
0-20 ball	59	23	36	
Ko‘rsatkich bo‘yicha umumiy vazn		0,04	0,03	0,05

So‘rovnoma natijalarini qayta ishlash jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining Farg‘ona viloyatida faoliyat olib boruvchi yetakchi mutaxassis (ekspert)lar xulosalari asosida turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi koeffitsiyentining vaznlari aniqlandi va ushbu koeffitsiyent vaznlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi koeffitsiyentlari vaznlari [7, 8]

№	Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari turi	Koeffitsiyentlar vazni
1.	Turizm xizmatlari sifati ko‘rsatkichlari	0,39
2.	Sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi ko‘rsatkichlari	0,27
3.	Mahalliy investorlarning sohaga kiritayotgan investitsiya hajmi ko‘rsatkichlari	0,18
4.	Xorijiy investorlarning kiritayotgan investitsiya hajmi ko‘rsatkichlari	0,11

5.	Investitsiyalarni kiritish jarayonidagi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari	0,01
6.	Sohaga kiritilayotgan investitsiyalarning foydalilik ko‘rsatkichlari	0,04

Yuqorida tahlil qilingan jarayonlardan kelib chiqib, so‘rovnoma o‘tkazilgan Farg‘ona, Namangan va Toshkent shaharlaridagi respondentlarning turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligining hududiy umumlashgan ko‘rsatkichini (1)-formula asosida quyidagicha aniqlash mumkin:

$$F_0 = 0,39F_1 + 0,27F_2 + 0,18F_3 + 0,11F_4 + 0,01F_5 + 0,04F_6$$

Umuman olganda, turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholash quyidagilarga ega bo‘lish imkonini beradi:

- turistik korxonalarining mulklarini boshqarish va turistik xizmatlar va mahsulotlarni yetkazib berish sifati bo‘yicha faoliyat samaradorligini aniqlash;

- taqdim etilayotgan turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligini muntazam baholab borish sohadagi lider turistik korxonalarini aniqlash va qolgan turistik korxonalar faoliyati maqsadli parametrlarini ushbu turistik korxonalar ko‘rsatkichlari asosida rejalashtirish;

- yaratilayotgan turistik xizmatlar va mahsulotlardan to‘liq qoniqish hosil qilishda asosiy o‘rin tutadigan iste‘molchi va turistik korxonalar o‘rtasidagi teskari aloqani shakllantirish;

- turistik korxonalarda xizmatlar sifatini yaxshilash va qo‘llab-quvvatlash jarayoni samaradorligini oshiruvchi tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslangan holda kelgusida turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish jarayonidagi tarkibiy o‘zgarishlarni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- turistik korxonalarda tarmoqda resurs yo‘qotilishiga olib keluvchi eskirgan jihozlar va tarmoq qismlarini almashtirish;

- yo‘qotishlar darajasini pasaytirish hamda turistik xizmatlar va mahsulotlarni zamonaviy turlari orqali iste‘molchilarning turistik xizmatlar va mahsulotlar iste‘moli darajasini maqbul darajada oshirish;

- tarmoqlar va binolarning issiqlik himoyasini oshirish;

- turistik korxonalar xodimlarini zamonaviy xizmat turlarini yaratish bo‘yicha malakasini oshirib borish hamda iste‘molchilar orasida targ‘ibot ishlarini kengaytirish;

- turistik korxonalar samaradorligi, ulardagi boshqaruv jarayonlari hamda xizmatlar sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniq baholagan holda ijobiy ta‘siriga erishish bo‘yicha faoliyat olib borish.

Taklif etilayotgan yo‘nalishlarning sohada kelgusida to‘laqonli amalga oshirilishi turizm xizmatlari bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan turistik korxonalarda qisqa vaqt ichida bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, ularni rivojlantirish va boshqarishda mavjud omillarni samarali boshqarish va muvofiqlashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlar darajasini pasaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Y, Nurbekov O.SH. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2014. – S. 52.
2. Dodiye F.O‘. Investitsion faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent. 1998. -22 b.
3. Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun e‘zilgan dissertatsiya. – T., 2008.

4. A.T.Mirzayev. O‘zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU. 2021. – 254-b.
5. Arzimatov B.Z. Turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent. 2025-yil. -151-bet.
6. Мирзаев А.Т. Оценка использования рекреационных возможностей на рынке туристических услуг // Региональная экономика: теория и практика. – 2019. – Т. 17, № 5. – С. 990 – 1002. <https://doi.org/10.24891/re.17.5.990>.
7. Mirzaev A. T. Evaluation of innovation capacity resource components in effective management of recreational clusters on the basis of econometric analysis // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2020. – pp.131-137. <https://doi.org/10.36713/epra4790>.
8. Mirzaev, A. T. (2020). Assessment of cluster formation in management of recreational activity. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 605-610. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.04.84.101>

UDK:334.02

**MILLIY IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNING
BARQARORLIGINI TA‘MINLASHNING ILMIY ASOSLARI**

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЕЕ УСТОЙЧИВОСТЬ**

**SCIENTIFIC BASES OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE NATIONAL
ECONOMY AND ENSURING ITS SUSTAINABILITY**

Mannopova Muazzamxon Sultonbekovna

Farg‘ona davlat universiteti Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrasida dotsenti.

Usibjonova Gulsanamxon Ulug‘bek qizi

Farg‘ona davlat universiteti, inson resurslarini rivojlantirish yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik rivojlantirishning ilmiy asoslari, uning salohiyatini oshirishning ahamiyati, amalga oshirilgan vazifalar va rivojlantirish istiqbollari o‘rganilib chiqilgan. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar, kreditlar, soliq imtiyozlari hamda erishilayotgan yutuqlar tahlil qilinib, ishbilarmonlik muhiti yaxshilanishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilganligi to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Ishbilarmonlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, o‘rta tadbirkorlik, kredit, soliq, soliq imtiyozlari, tadbirkorlik muhiti, xususiy mulk.

В данной статье рассматриваются научные основы развития предпринимательства в условиях либерализации экономики, значение повышения его потенциала, реализованные задачи и перспективы развития. Проанализированы инвестиции, направляемые на осуществление предпринимательской деятельности, кредиты, налоговые льготы и достигнутые успехи, высказаны мнения об улучшении деловой среды, создании широких возможностей для малого бизнеса и частных предпринимателей.